



## TURKSOY TASHKILOTINING 30 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O‘ZBEKISTONDA O‘TKAZILAYOTGAN MADANIYAT KUNLARI ISHTIROKCHILARIGA

Assalomu alaykum, qadri do‘stlar!  
Hurmatli mehmonlar!  
Avvalo, siz, azizlarni Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY tashkiloti topganining 30 yilligi bilan samimiy taqdirlov bilan.

Turkiy dunyoning atoqli madaniyat va san‘at namoyandalari, shoir va rassomlari, kinoijodkorlari, iste‘dodli yoshlarni Toshkentda bo‘lib o‘tayotgan xalqaro madaniyat anjumanida ko‘rib turganimizdan behiyo mamnunmiz.

O‘zbekiston zaminiga xush kelibsiz!  
Biz azaldan tarixi, tili va dini, urf-odat va an‘analari, bugungi orzu-intilishlari musharak bo‘lgan xalqlarimiz o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlik munosabatlarini mustahkamlashda TURKSOYning ulkan o‘rni hamda ahamiyati borligini minnatdorlik bilan e‘tirof etamiz.

Hozirgi kunda global olamda shiddat bilan kechayotgan jarayonlar barchamizdan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hamkorlik bilan birga, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, madaniyat va san‘at, adabiyot, sog‘liqni saqlash, turizm, sport singari muhim sohalarini rivojlantirish borasida birgalikda harakat qilishni talab etmoqda.

Turkiy millatlarning ma‘naviy birligini ta‘minlash, musharak qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, umumiy boyligimiz bo‘lmish noyob tarixiy merosimizni o‘rganish va targ‘ib etish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish borasida keng ko‘lamli madaniy-gumanitar dasturlar amalga oshirib kelinmoqda.

TURKSOY tomonidan o‘tkazib kelinayotgan yirik anjumanlar madaniyat va san‘at sohasini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bilan bir qatorda, xalqlarimiz o‘rtasidagi qarodoshlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilayotgani e‘tiborga molikdir.

Jumladan, o‘tgan davr mobaynida Ostonada, Turkistonda, Eskishahar, Kastamonu, Bursa, Qozon, Mari, Sheki, O‘sha va Xivaning turkiy dunyoning madaniyat poytaxti deb e‘lon qilinishi ushbu qadimiy va go‘zal shaharlarimizning shon-shuhratini yanada oshirdi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

O‘zbekiston turkiy davlatlar tashkilotiga to‘laqonli a‘zo bo‘lib kirganidan so‘ng barcha sohalar singari TURKSOY faoliyati doirasidagi hamkorlik aloqalari ham yangi bosqichga ko‘tarildi.

Xususan, a‘zo davlatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda turkiy mamlakatlari madaniyati va san‘ati kunlari, yoshlar va teatr festivallari, ijodiy forumlar uyushqoqlik bilan o‘tkazilmoqda.

Tashkilot doirasidagi ilmiy-ma‘rifiy anjumanlar, turkiy tillar va adabiyotlari rivojiga bag‘ishlangan xalqaro

konferensiyalarda mamlakatimiz olim va ijodkorlari faol qatnashmoqda.

Ana shu hamkorlikning amaliy samarasi sifatida yurtimizda “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumi nashr etilgani, unga O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlaridan jami 450 dan ziyod mumtoz va zamonaviy shoir, adib va mutafakkirlarning asarlari kiritilganini ta‘kidlash joiz.

Turkiy dunyoning siyosat, ilm-fan, tibbiyot, adabiyot va san‘at sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan namoyandalarni rag‘batlantirish maqsadida buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta‘sis etilgani madaniy hayotimizda muhim voqea bo‘ldi.

Bu yil go‘zal Navoiy shahrida bo‘lib o‘tgan TURKSOY yozarlar birligining birinchi yig‘ilishi hamda “Mumtoz she‘riyat” deb nomlangan xalqaro festival turkiy adabiyot olamida katta aks sado berdi.

Shuningdek, tashkilot bilan hamkorlikda Guliston shahrida III Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali, Toshkent shahrida Turk dunyosi talabalar xalqaro teatr festivali hamda Marg‘ilon shahrida “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor festivali yuqori saviyada o‘tkazildi.

2023-yilda buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning 1050 yillik, Zahiriddin Muhammad Boburning 540 yillik tavallud sanalarini ham, nasib etsa, birgalikda nishonlaymiz.

TURKSOYning 30 yillik qutlug‘ sanasiga bag‘ishlangan madaniyat kunlarining a‘zo davlatlar poytaxtlari hamda BMT, UNESCO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning rasmiy qarorgohlarida keng nishonlanishi — bu avvalo jahon hamjamiyatining turkiy xalqlar madaniyati, urf-odat va qadriyatlariga yuksak hurmat-ehtiromi ramzidir.

Zero, turkiy dunyomizning havas qilsa arziydigan buyuk tarixi, ulug‘ ajdodlari, madaniyati va san‘ati bor. Eng muhimi, mana shunday bebaho ma‘naviy boyligining munosib vorislari bor.

Turkiy davlatlar tashkilotiga raislik qilayotgan O‘zbekistonda bugun o‘z ishini boshlayotgan madaniyat bayrami faoliyatiga muvaffaqiyat va barchangizga sermahsullik tilab, yana bir bor o‘zimizning samimiy va ezig‘u tilaklarimizni izhor etishdan baxtiyorman.

Hurmat bilan,

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

## O‘ZBEKISTON – ERON SAMMITI IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKNING MUHIM YO‘NALISHLARINI BELGILAB BERDI



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 18-iyun kuni Eronga rasmiy tashrifi nafaqat ikki tomonlama munosabatlarda, balki xalqaro siyosat maydonida ham katta aks-sado berdi.

Davomi 2-betda

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI QURBON HAYITINI NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Asrlar davomida xalqimizga xos mehr-oqibat, xayr-saxovat kabi ezig‘u umuminsoniy qadriyatlarini namoyon etib kelayotgan Qurbon hayiti jonajon Vatanimizda o‘zaro hamjihatlik, bag‘rikenglik va shukronalik fazilatlarini yanada mustahkamlashga beqiyos hissa qo‘shmoqda. Ushbu ulug‘ ayyomning ma‘naviy hayotimizdagi muhim ahamiyatini e‘tiborga olib hamda uni mamlakatimizda munosib nishonlash maqsadida:

1. Joriy yilda Qurbon hayitining birinchi kuni **28-iyun – chorshanba** kuni go‘g‘ri kelishi to‘g‘risida O‘zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolara kengashi tomonidan qabul qilingan qarorni inobatga olib, yurtimizda **2023-yil 28-iyun** kuni Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlanis.

2. Aholining Qurbon hayiti bayramini munosib saviyada o‘tkazishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrda “2023-yilda rasmiy sanalarini nishonlash davrida qo‘shimcha ishlamaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida”gi PF-270-son Farmoni bilan ish haftasining turidan qat‘i nazar barcha xodimlar uchun **2023-yilning 29-30-iyun** kunlari, olti

kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun **1-iyul kuni qo‘shimcha dam olish kuni** sifatida belgilangan ma‘lumot uchun qabul qilin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Qurbon hayiti xalqimizning milliy an‘ana va qadriyatlariga mos ravishda o‘tkazilishi uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshir.

4. Madaniyat va turizm vazirligi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun Qurbon hayiti kunlarida mo‘tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamlolarga ziyoratlarini tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yarat.

5. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Qurbon hayitini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi M.M.Kamilov zimmasiga yuklan.

**O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti**

**SH.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,  
2023-yil 19-iyun

## TURKIY XALQLARNING OLTIN KO‘PRIGI

Poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning 30 yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali tadbir va konsert dasturi bo‘lib o‘tdi.

Unga turkiy davlatlarning san‘at va madaniyat, sayyohlikka oid vazirlik va tashkilotlari, xalqaro tuzilmalar, diplomatik korpus vakillari, adabiyot, san‘at va madaniyat namoyandalari, ommaviy axborot vositalari xodimlari taklif etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning TURKSOY tashkilotining 30 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan madaniyat kunlari ishtirokchilariga tabrigini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov o‘qib eshittirdi.

Davomi 2-betda

## 2023 9-IYUL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Ulug‘bek Inoyatovning saylovoldi tashviqotiga doir maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

## MILLAT FIDOYLARI

# ABDULLA ORIPOV ijodiy fenomenini yoxud mangulikning billur toji

Badiiy ijod — inson mavjudligining o‘ziga xos shunday bir unsuriki, butun mohiyati bilan tiriklik va hayotning abadiyligini himoya qiladi, mana shu betizgin hamda betakror himoya jarayonida uni butunlay nomukammallik talabi bilan rad ham etadi.

Mening nazariyda, atoqli shoir Abdulla Oripov ijodiy fenomenining butun sir-sinoati inson mavjudligini va hayot abadiyligini himoya qilish va inkor etishdadir.

Shoir she‘riyati samoviy lazzat, ilohiy surur, dardchil tug‘yonli hislar alangasi, falsafiy poetik idrok etish quvvati, donishmandlik zakovati, yangicha tafakkur qudrati, milliy ohanglarning ko‘p ovozi yig‘masi, o‘tkir ijtimoiy qarashlar silsilasi bilan shunday omixtiki, xuddi quyosh nurlari yuzlab ranglarni o‘zida jamlagandek cheksiz ohanraboga boydir.

Ranglar naykamalagi, ohanglar simfoniyasi bir chiziqda jonlanadi, so‘z muvozanatiga xalal bermaydi, qalbimizga imo-ishoralarga boy inja kuydek quyiladi, ong osti sezgimizni junbushga keltiradi. Ko‘ngil mayllari qonimizda jo‘shqinlikka

vobasta bo‘lib, oydin taassurotlar uyg‘otadi. Go‘zallik qonuni odatda adabiyotda kashf etiladi.

O‘tgan asrning 60-yillarida davr nafasidan dimiqqan adabiyot falajlangan xotiralar qo‘ynida o‘z qiyofasini yo‘qotgan, insondan ko‘ra moddiyatni baland tug‘ etgan, ijtimoiy voqelikdan chekingan, ritorik qutulardan alahsirash mavsumi yuz bergan damlarda o‘zbek she‘riyati osmonida Abdulla Oripov isyonkor hislarga yo‘g‘rilgan she‘rlari bilan mitti yulduz bo‘lib porlagan va inson mohiyatini poetik tasvir etish, timsollashtirish barobarida adabiyotimizning qorong‘ulik puchmoqlarini yoritgan bo‘lsa, Erkin Vohidov she‘riyati musaffo tong nafasini olib kirdi. Ular sho‘ro tuzumida azaliy ko‘rkini yo‘qotgan san‘atga insoniy-ruhiiy kechinma, sehr-u sinoat, yuksak joziba, musiqiylikni qaytardi.



O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov Abdulla Oripov tug‘ilgan yurtda bo‘lib, shoirning botaligi kechgan qiradirlarni kechgani, kengliklar shovuridan nafas olib zavqlangan damlarni e‘tirof etarkan, shunday yozadi: “Har gal uning she‘rlarini mutolaa qilar ekanman, tafakkuriga o‘sha cheksizliklar cheksizlik bergandek, satrlari sahro quyoshidan nur emgandek va shu satrlar orasidan

anvoiy chechaklar hidi ufarib turgandek, kelib mening dimog‘imga urilayotgandek bo‘ladi”. Aslida, shoirni shoir qiladigan manba ham uning tug‘ilib o‘sgan yurti mo‘jizasiga bog‘liqdir. Shoirning “Qarshi qo‘shig‘i” she‘rida uning yurtga muhababati nechog‘liq o‘zaklanganini, cheksiz mehrga yo‘g‘rilganini ko‘ramiz.

Davomi 6-betda



# IJTIMOY YO'NALTIRILGAN BOZOR IQTISODIYOTI

## O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatov dasturidagi ustuvor maqsad



Huquqlar va imkoniyatlar tengligiga erishish har bir jamiyatning asosiy maqsadidir. Mazkur ijtimoiy mezon tarixiy an'analar, odatlar va qadriyatlar zamirida vujudga kelgan tamoyillar majmuasiga asoslangan holda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, qonunda belgilangan tartibda huquqlarni amalga oshirish va shu yo'l orqali jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lganlik hissinu yanada o'rtiradi.

### Barqaror taraqqiyot va ijtimoiy farovonlik

Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish jamiyatda barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashning muhim omillaridan biri. Chunki faol bozor munosabatlarga o'tish sharoitida aholining ehtiyojmand qatlami huquq va manfaatlarini hisobga olinishi iqtisodiyotning umumiy barqarorligini kafolatlaydi.

### Nomzod dasturining 5-yo'nalishi "Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti — barqaror taraqqiyot va ijtimoiy farovonlik asosi" deb nomlangani bejiz emas.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti bo'lgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod ham iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiylikka yo'naltirilgan modelini barqaror taraqqiyot va xalq farovonligining asosi, deb biladi. Zero, partiyaning dasturiy maqsad va vazifalari negizida aynan shu tamoyil muassamdir.

Biz jamiyat va davlatning asosiy maqsadi qatorida tengsizlik va kambag'allikni bartaraf etish, ushbu holatlarning oldini olish hamda bu borada kechiktirib bo'lmas choratadbirlar ishlab chiqishni ko'ramiz.

Bu borada olib borilgan tadqiqotlar natijasida tengsizlikning xulosalariga ko'ra, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti shunday tizimki, u bir tomondan, erkin bozorning o'zini o'zi tartibga solish tamoyillariga asoslansa, ikkinchi tomondan, xususiy tadbirkorlik va nodavlat sektorining ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilishini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyotining bu shaklida yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni qayta taqsimlashda davlat muhim rol o'ynaydi.

Dunyo davlatlari tajribasiga nazar solsak, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuritishda yetakchilardan sanalgan Skandinaviya davlatlari, Niderlandiya, Germaniya kabi mamlakatlarda ijtimoiy tenglikka asoslangan munosabatlarga iqtisodiy samaradorlikni erishishning muhim omili sifatida qaraladi.

### Davlatning ijtimoiy mas'uliyati

Mavjud an'anaviy iqtisodiy munosabatlarda biznesning ijtimoiy mas'uliyati belgilanib, aholining ijtimoiy himoyasi bilan amalga oshiriladi. 2020-yildagi global pandemiyaga, uning ortidan geosiyosiy maydondagi ziddiyatlar tufayli paydo bo'lgan inqiroz sharoitida juda ko'p davlatlar uchun sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash hamda aholini ijtimoiy himoya qilish eng ustuvor yo'nalishlarga aylandi. Bu o'z-o'zidan inson omili bilan bog'liq holatlar inobatga olingan holda erkin bozor iqtisodiyotiga xos jarayonlarni qaysidir darajada jilovlab, tengsizlikni, kambag'allik xavfini yumshatish masalasini kun tartibiga olib chiqdi.

Bu borada xalqaro tashkilotlarning ba'zi ma'lumotlariga e'tibor qaratish kifoya. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining "2020-2022-yillarda dunyoda ijtimoiy

himoya. Ijtimoiy himoya burlish nuqtasida — yorqin kelajak sari" deb nomlangan hisobotida keltirilishicha, Yer yuzidagi insonlarning 47 foizi ijtimoiy himoyaning kamida bitta turidan foydalanadi, 53 foizi (4,1 milliard kishi) esa o'zlarining milliy ijtimoiy himoya tizimlarida daromad kafolatiga ega emasligi qayd etilgan.

Bugun dunyo davlatlari ijtimoiy siyosatda burlish pallasida ekaniga ishora qilingan ushbu hisobotda ijtimoiy himoya sohasida jiddiy mintaqaviy tafovutlar borligi aytiladi. Ahamiyatli, Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida fuqarolar ijtimoiy himoya bilan eng ko'p qamrab olingan bo'lib, uning kamida bitta turidan aholining 84 foizi foydalanmoqda.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Ulug'bek Inoyatovning Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan tashabbuslardan biri "Iqtisodiy siyosatning ijtimoiy samaradorligi — muhim" ekanligidir.

Nomzod dasturida bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishi uchun yetarli iqtisodiy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, raqobatni himoya qilish barobarida inflyatsiya va ishsizlikni kamaytirish davlatning muhim vazifasi bo'lishi kerakligi ilgari surilmog'unda.

Dasturda iqtisodiy siyosatning ijtimoiy samaradorligini ta'minlash uchun 11 banddan iborat ustuvor vazifalar keltirilgan. Xususan, nomzod iqtisodiyotda davlatning faol roli va ishtiroki saqlab qolinishi kerakligiga e'tibor beradi. Chunki jamiyatimizda bozor munosabatlarni tartibga solish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash jarayoni davlat ishtirokisiz bo'lmasligi kunday ravshan.

Mamlakatimizda xususiy tadbirkorlikni huquqiy asoslarini va davlat mulkining qiymatini aniqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun mahalliy investorgalarga ham xorijiy investorgalarga berilgan kam bo'lgan imtiyozlarni belgilash vazifalari esa bugungi kunda iqtisodiy islohotlarda kuzatilayotgan ayrim bo'shiqlarni bartaraf etishni ko'zda tutadi.

### Ijtimoiy tenglik g'oyasi

Nomzod dasturidagi tashabbuslarning zamirida ijtimoiy tenglik g'oyasi yotadi. Deylik, qimmatbaho mol-mulk uchun soliq joriy etish, bunda miqdori qonun bilan belgilangandan yuqori uy-joy, avtotransport yoki boshqa mol-mulk mulkdorlaridan ushbu soliqning undirilishini nazarda tutish masalasi mohiyati va ahamiyatiga ko'ra bugungi kunda dolzarbdir. Agar soliqlar ijtimoiy himoya maqsadlariga xizmat qilishini nazarda tutsak, qimmatbaho mol-mulk uchun soliq to'lash ham insoniylik, ham an'anaviy qarashlarimizga, qadriyatlarimizga mos hamda muvofiqdirligi anglaymiz. Mazkur tajriba bugungi kunda dunyoning qator davlatlarida samarali natijalarni ko'rsatmoqda.

Hozirda hayotimizni Internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Axborot olish va axborot yetkazish, muloqot qilish bilan bog'liq ehtiyojlarimizni aynan ular bilan bog'laymiz. Shu bilan birga, bugun Internet va ijtimoiy tarmoqlar tijoriy faoliyat hamda reklama maydoniga

ham aylanib bormoqda. Qo'limizdagi mitti qurilma orqali global tarmoqqa ulansak, go'yoki onlayn do'konlaru onlayn xizmat ko'rsatish turlari kun emas, soat sayin ko'payib borayotgandek tuyuladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tijoriy faoliyat bilan, reklama bilan shug'ullanib, o'rtacha oylik nominal ish haqidagi yuqori foyda ko'rayotganlardan barcha soha ishchixodimlari qatorida daromad solig'ini undirish masalasida aniq mexanizmlar joriy etish ham muhimdir.

### Kuchli ijtimoiy siyosat uchun kuchli budget

Dasturda mamlakatning iqtisodiy qudrati, eng avvalo, kafolatlangan budgetga besosita bog'liqligini inobatga olib, undirilgan barcha to'lovlarni (jarima, davlat boji, yig'im, boshqa majburiy undiruvlar) Davlat budgetiga yo'naltirish tartibini joriy etish taklif etilmog'unda.

O'z navbatida, tabiiy savol tug'ilishi mumkin, ya'ni nomzodning Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan ushbu g'oya jamiyat va davlatga qanchalar muhim?

Ma'lumki, mamlakatda ijtimoiy masalalarni samarali hal qilish butun dunyoda asosan Davlat budgeti daromadlari bilan bog'liq. Shuning uchun mamlakatimizda budget tushumlarini oshirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Hozirda jarima, davlat boji, yig'im, boshqa majburiy undiruvlarning ma'lum qismi Davlat budgetiga qo'shilgan bo'lgan holda, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlashda dolzarb ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan sohalarni hamda o'zini o'zi band qilgan, deb hisoblanadigan faoliyat turlari ro'yxatini kengaytirish takliflari ilgari surilmog'unda.

Bu masalalar Xalq demokratik partiyasining doimiy elektorati manfaatlarini himoya qilishda, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlashda dolzarb ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan sohalarni hamda o'zini o'zi band qilgan, deb hisoblanadigan faoliyat turlari ro'yxatini kengaytirish takliflari ilgari surilmog'unda.

Shu sababli, nomzod dasturidagi undiriladigan barcha to'lovlarni (jarima, davlat boji, yig'im, boshqa majburiy undiruvlar) Davlat budgetiga yo'naltirish tartibini joriy etish taklifi juda muhimdir.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdadiki, aholining ehtiyojmand qismi muammolari yechimi, asosan, ular bandlegini ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

### Bandlik va ijtimoiy himoya

Barcha davlatlarda ishsizlik va uni bartaraf etish masalasi o'ta dolzarb hisoblanadi. Ishsizlik darajasini kamaytirish va fuqarolar bandlegini ta'minlash kambag'allikni qisqartirish, aholi farovonligini, turmush sifatini va to'lov qobiliyatini oshirishning bosh omili hisoblanadi.

Shu bois, barcha davlat va jamiyatlarda ishsizlikdan himoya qilish tizimining qanday yo'lga qo'yilgan, aholi bandlegini ta'minlashga qaratilgan islohotlarning qay darajada tizimli va izchil amalga oshirilayotgani fuqarolarni qiziqtiradigan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, Xalq demokratik partiyasining asosiy g'oyalardan biri aholini ijtimoiy himoya qilishdir. Ishsizlar ham ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam hisoblanadi. Shu sababli, nomzodimiz dasturida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan.

Aholi bandlegini ta'minlash va kasbiy tayyorgarligini oshirishga zamin yaratadigan huquqiy asoslarni mustahkamlash muhimdir. Masalan, yangilangan Konstitutsiyamizning 43-moddasida davlat fuqarolarining kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi hamda rag'batlantirishi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi va "Aholi bandlegi to'g'risida"gi qonunda ham mehnat munosabatlari, xodimlarning huquqlari va ularning kafollari batafsil tartibga solingan.

Mana shu huquqiy asoslarga tayangan holda, nomzod dasturida mehnatga layoqatli aholining shaxsiy tashabbuslari va uddaburonligini rag'batlantirish, fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish, kasbiy tayyorgarligi va qayta tayyorlanishini tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan sohalarni hamda o'zini o'zi band qilgan, deb hisoblanadigan faoliyat turlari ro'yxatini kengaytirish takliflari ilgari surilmog'unda.

Bu masalalar Xalq demokratik partiyasining doimiy elektorati manfaatlarini himoya qilishda, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlashda dolzarb ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan sohalarni hamda o'zini o'zi band qilgan, deb hisoblanadigan faoliyat turlari ro'yxatini kengaytirish takliflari ilgari surilmog'unda.

Bundan tashqari, nomzodning dasturida yuqori qo'shilgan qiymatga ega va innovatsion ilg'or texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarini jadal rivojlantirish maqsadida samarali moliyaviy va soliq imtiyozlarini o'zlash bo'yicha takliflar ham ilgari surilmog'unda.

### Davlat — asosiy tartibga soluvchi

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga ko'ra, fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilmaxil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarni rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

Nomzod o'zining Saylovoldi dasturidagi davlatning asosiy tartibga soluvchilik

rolini kuchaytirish g'oyasi konstitutsiyaviy qoidalar asosida ishlab chiqilganini e'tirof etish lozim.

Bozor munosabatlarga asoslangan iqtisodiyotda davlatning asosiy tartibga soluvchilik roli bugungi kunda muhim. Biroq, erkin bozor munosabatlari taraqqiyoti investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiy faoliyatga erkinlik berish, yalvata va narx siyosatini yanada erkinlashtirish, xususiy lashtirish va iqtisodiyotda davlatning rolini qisqartirish afzaliklarini nazariy-amaliy jihatdan asoslashga kirishadi. Xuddiki, davlatning bozor munosabatlarga aralashuvi ayrim hollarda qonundan og'ish, monopoliya va korrupsiyaga yo'l ochish kabi illatlarni yuzaga keltirishni iddao qiladi.

Xalq demokratik partiyasi esa bundan farqli ravishda iqtisodiyotni liberalashtirish va erkin bozor munosabatlari har doim ham jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish maqsadlariga erishish kafolatini bermaydi, deb hisoblaydi. Chunki erkin bozor qonunlari kezi kelganda insonparvarlik tamoyillaridan chetga chiqib, ijtimoiy tafovutlar hamda tengsizlikning chuqur ildiz otishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa, ijtimoiy barqarorlik sari itilgan jamiyat uchun xos emas. Qolaversa, samarali boshqaruvi ega davlatning asosiy tartibga soluvchilik roli bozor munosabatlarni rag'batlantirib, ijtimoiy-iqtisodiy samara keltiradi.

Nomzod dasturida davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchilik rolini kuchaytirish uchun bir qator izchil tashabbuslar o'rin olgan. Hududlarning barqaror rivojlanishi uchun davlat daromadlarini teng va adolatli taqsimlash, umumxalq ahamiyatiga ega iqtisodiy tarmoqlarning boshqaruvi davlat ishtirokini mustahkamlash, davlat ulushi bo'lgan yirik ishlab chiqarish korxonalarini kuzatuv kengashlari tarkibiga jamoatchilik vakillarini kiritish orqali ular ishidagi shaffoflikni oshirish kabi muhim takliflar shular jumlasidandir.

Ayniqsa, nomzodning Saylovoldi dasturida belgilanganidek, oziq-ovqat mahsulotlari va kundalik ehtiyojdagi boshqa tovarlarni ishlab chiqarish sohasida davlat tomonidan tartibga solish choralarini qonuniy jihatdan mustahkamlashni davrning o'zi taqozo qilmoqda.

Ichki bozorni o'zimizda ishlab chiqarilgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega tovarlar bilan to'ldirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri ekanini nazarda tutgan holda, nomzod ishni quyidagi boshlashni taklif etadi. Ya'ni, mahalliy hokimliklar darajasida hayot uchun muhim va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari hamda kundalik zarur tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha o'rtacha muddatli hududiy dasturlarni shakllantirish lozimligi, mazkur dasturlar hududlarda ish o'rnlarni tashkil etishga doir davlat buyurtmalari hamda o'rtacha maxsus, oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash dasturlariga muvofiq bo'lishi kerakligi qayd etiladi.

Bundan tashqari, sanoat sohasi bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning samaradorligini oshirish, bu borada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozimligi nazarda tutiladi.

Sir emaski, bugun har bir davlat uchun oziq-ovqat xavfsizligi hayot-mamot masalasiga aylandi. Bundan tashqari, yer yuzida ro'y berayotgan global iqlim o'zgarishlari, shiddat bilan qamrovi ortib borayotgan qurg'oqchilik, tabiiy ofatlar oqibatida qishloq xo'jalik ekinlari hamda ularning hosildorligiga putur yetmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 20 dan ziyod davlat o'z xalqini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay olmaydi. Ya'ni, dunyoning 815 millionga yaqin aholisi ochlikda kun kechirmoqda.

Iqtisodiyotimizning asosiy tayanchi bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi orqali iqtisodiyotimizga zarur bo'lgan xomashyolar yetishtirish, ularning importi va eksporti ta'minlash muhim. Ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil yakuni bo'yicha yalpi ichki mahsulotning 25,1 foiz qismi aynan qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri kelgan. Ushbu holatni hisobga olsak, nomzod Saylovoldi dasturida mazkur tarmoq istiqboliga kengroq o'talib o'tgani bejiz emasligini ko'ramiz.

Ta'kidlanganidek, qishloq xo'jaligi sohasida yuqori natija beruvchi xo'jalik yuritish shakllarini joriy qilish, shu asosda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning barqaror va samarali tizimini yaratish, sohaga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar hamda texnologiyalar uchun sarfoga kiritish salmoqlarini oshirish, ishlab chiqaruvchilarda hamda qayta ishlab korxonalar o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish ichki bozorda taqchillik va narx-navo o'sib ketishining oldini olish imkonini beradi.

O'z navbatida, nomzodning Saylovoldi dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlab tarmoqlarida muqim, yuqori haq to'lanadigan ish o'rnlarni yaratishda, yurtimiz aholisining salmoqli qismi yashaydigan qishloq joylarda ishsizlik muammosini bartaraf etishda qo'l keladi.

### Jamoatchilik nazorati — ijtimoiy samaradorlik kafolati

Nomzodning Saylovoldi dasturida belgilangan asosiy xarajatlarga yo'l qo'ymaydigan, "Davlat budgeti — xalq mablag'i" tamoyili asosida uning sarf-xarajatlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozimligi haqida ilgari surgan g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Dasturda iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va yangi texnologiyalarni tatbiq etish masalalari bo'yicha barcha jabhada ijtimoiy muloqot va jamoatchilik nazorati mexanizmini joriy qilish, aholining barqaror, yuqori haq to'lanadigan ish o'rnlarda bandlegini oshirish, mehnat muhofazasi, ishlab chiqarishning ekologik tozaligini ta'minlash bilan uyg'unlikda olib borish zarurligi aniq va ravshan keltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovda Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatovning Saylovoldi dasturida milliy iqtisodiyotimiz rivojining hozirgi bosqichida aholi o'rtasida kambag'allikni qisqartirish va mamlakatimizni o'rta daromadli yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiritish, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini oshirish kabilarni ham dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Bu muhim maqsadni iqtisodiy islohotlarda fuqarolarning, jumladan, yoshlar, ayollar va nogironlilar bor shaxslarning ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ro'yubga chiqarish mumkinligi ilgari surilmog'unda.

Mamlakatimiz taqdiri va kelajagimiz uchun muhim sanalgan siyosiy jarayon — Prezident sayloviga bir oydan kam fursat qoldi. Saylov kampaniyasi avj nuqtada davom etayotgan ayni chog'da Xalq demokratik partiyasi o'z nomzod dasturini keng targ'ib etish, tushuntirish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Barcha saylovchilarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovda Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatov dasturini qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz!

To'liq T O'RAXONOV, O'ZDP Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari

O'ZBEKISTON XALQ DEMOKRATIK PARTIYASIDAN PREZIDENTLIKKA NOMZOD ULUG'BEK INOYATOVGA OVOZ BERING!

“

Bugungi kunda mamlakatimizda muqobil energetika sohasida 7,5 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, “yashil” vodorod ishlab chiqarish bo'yicha yangi loyihalar tayyorlanmoqda.

DOLZARB MAVZU

# BOQIY ENERGIYANING BEMINNAT MANBAI



Abdurauf QORJOV, iqtisodiy sharhlovchi

**Shamol — muqobil energiya manbalaridan biri. U quyosh nurining intensivligi, bosimning o'zgarib turishi natijasida havo massasining harakati tufayli hosil bo'ladi. Shu bois, abadiy energiya manbai hisoblanadi. Mutaxassislar qayd etishicha, insoniyat ming yillardan buyon tegirmonni yurgizish va dengizda yelkanli kemalarda harakatlanish uchun uning kuchidan foydalanib kelgan. O'rta va keyingi asrlarda Yevropa mamlakatlarida undan sanoat va qishloq xo'jaligida keng miqdorda foydalanilgan. Yurtimizda ham yaqin paytlargacha bug'doy, arpa va boshqa boshqali ekinlar donini yoki mayizni ajratib olishda shamol yaqin ko'makchi bo'lgani yaxshi ma'lum.**

Shamolning yillik nazariy zaxirasi Yer yuzidagi barcha energiya resurslaridan 100 marta ortiq bo'lib, ayni vaqtda dunyodagi bu turdagi barcha quyosh energiya quvvati 743 gigavattga oshadi. Endilikda bu raqam yiliga 10-15 foizga ortib borishi bashorat qilinmoqda.

Ma'lumki, 1 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun 0,3 kub metr tabiiy gaz, o'rtaacha 2,5 kilogramm ko'mir sarflanadi. Ko'mir asosida ishlaydigan quvvati 1 megavattli stansiya atmosferaga 1 ming 800 tonna uglerod va 13 tonna azot oksidlarini chiqaradi. 1 megavatt quvvati shamol generatori esa 20 yil davomida 29 ming tonna ko'mir yoki 92 ming tonna neftni iqtisod qiladi. Shamol generatorlaridan olinadigan quvvat ekologik eng toza elektr energiyasi hisoblanadi.

Shu bois, dunyo bo'yicha shamol energiyasidan foydalanish katta tezlikda o'smoqda. Agar 2000-yilda dunyodagi barcha davlatlarda shamoldan 17,4 gigavatt energiya olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014-yilda 389,5 gigavattni tashkil qildi, ya'ni 14 yil davomida shamoldan elektr energiyasi olish 20 barobar oshdi. Undan keyingi davrda esa 353,5 gigavatt dan ortiqqa o'sdi.

Shamolning elektr quvvati olish bo'yicha Xitoy dunyoda birinchi o'rinda turadi. Jahondagi mazkur energiyaning qariyb uchdan bir qismi uning ulushiga to'g'ri keladi. AQSH, Germaniya, Ispaniya kabi rivojlangan davlatlar keyingi o'rinlarni egallaydi. Daniya 2025-yilda elektr energiyaga bo'lgan talabning uchdan ikki qismini, Buyuk Britaniya 2030-yilga borib barcha ehtiyojni shamol energetikasi hisobidan qoplashni rejalashtirgan. Yevropaning boshqa davlatlarida ham mazkur muqobil quvvat yuqori tezlikda rivojlanmoqda.

Qolaversa, shamol elektr stansiyalarida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi narxi ham arzonlashib boryapti. 2010-2020-yillar orasida quyurlikdagi shamol elektr stansiyalari orqali ishlab

chiqarilgan elektr energiyasining o'rtaacha narxi 56 foizga arzonlab, 1 kilovatt-soat elektr energiyasi 8,9 sentdan 3,9 sentgacha pasaygan.

## 1 trillion kilovatt-soatga yaqin elektr quvvati

— Shamoldan elektr energiyasi olish uchun uning o'rtaacha yillik tezligi sekunda 3 metr dan yuqori bo'lishi kerak, — deydi geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Rasuljon Mamajonov. — Undan hosil bo'lgan quvvatlar akkumulyatorda to'planadi, shundan so'ng tarmoqqa uzatib beriladi. Tezligi sekunda 3 metr dan kamroq ekinli shamoldan ham kichik quvvatdagi elektr energiya hosil qilish mumkin, lekin undan foydalanib bo'lmaydi.

O'zbekistonda Yer yuzasidan 20-30 metrdan 80 metrgacha balandlikda shamolning yillik o'rtaacha tezligi sekunda 4,5 dan 5,5 metrgacha yetadi. Buni 2014-yilda Germaniyaning "GEONET" va "Inter-COPA" kompaniyalari "O'zbekgidroenergo" AJ bilan birgalikda olib borgan o'lchash va kuzatish ishlarida aniqladi. Bu yumushlar 84 metr balandlikda bajarildi va mazkur ma'lumotlar asosida "GEONET" tomonidan O'zbekiston hududining shamol resurslari xaritasi tuzildi. Unga ko'ra, shamol sekunda 5 metrdan 6,5 gacha va undan yuqori tezlikda bo'lgan hududlar mamlakatimiz umumiy maydonining 70-75 foizini, sekunda 3 dan 5 metrgacha esadigan joylar 20-25 foizni va 2,5 dan kam bo'lgan hududlar 5 foizga yaqin maydonni tashkil etadi. Mazkur raqamlar respublikamizning 95 foiz hududida shamol energiyasidan foydalanish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanib, aholi ijtimoiy hayotining yaxshilanib borishi energetika resurslariga bo'lgan talabni oshirmoqda. Bunda shamol resurslari xaritasi qo'l keladi. Ushbu xarita asosida Energetika vazirligi tomonidan ikki istiqbolli hududlar belgilangan. Ana shundan kelib chiqqan holda, Navoiy, Buxoro, Samarqand, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi janubida shamol energiyasi salohiyatini aniqlash maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Ularning har birida shamol tezligi va yo'nalishi, havoning zichligi va haroratini aniqlaydigan o'lchov asboblari joylashtirilib, balandligi 85 metrli meteorologik ustunlar o'rnatildi. Mazkur o'lchov uskunalari yo'ldosh aloqa tizimi vositasida keyingi tahlil uchun ma'lumotlarni serverga onlayn tartibda uzatadi. Bu ma'lumotlardan investitsion loyiha tayyorlashda shamol generatorining eng optimal birlik quvvatini aniqlash va potensial elektr energiya ishlab chiqarishni hisoblashda foydalaniladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, ayni paytda O'zbekistondagi qayta tiklanuvchi

energiyaning yillik elektr quvvati, jumladan, quyosh energiyasini 525 dan 760 milliard kilovatt-soatgacha yetasa, shamol energiyasini 1 trillion kilovatt-soatgacha, ya'ni eng katta manbaga ega hisoblanadi.

Bundan bir necha yil oldin tajriba tariqasida Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida 750 kilovatt quvvatli shamol qurilishi tiklangan edi. Shundan keyin yurtimizning turli joylarida ayrim fermer xo'jaliklari va kompaniyalar tomonidan shunday qurilmalar qurilgan va ular ishlab turibdi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda shamol energetikasidan keng foydalanish bo'yicha sohada texnik-iqtisodiy izlanishlar o'tkazilib, "2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasi" ishlab chiqilgan. Ayni paytda yurtimizda 5 ming megavatt quvvatli shamol elektr stansiyalari (SHES)ni qurish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilanmoqda.

## Bir kilovatt-soat elektr energiyasi uchun 2,57 sent

Beruniy va Qorao'zak tumanlaridagi shamol elektr stansiyasi qurilishiga o'tgan yil 24-fevral kuni tamal toshi qo'yilgandi. U bir yillik emas, ko'p yillarga tatiydigan loyiha sifatida baholalanayotganining asoslari bor. Chunki Qoraqalpog'istonda o'nlab yillar davomida energetika tanqisligi aholini qiyinab keldi. Hudduda yagona bo'lgan va bundan 66 yil avval qurilgan Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasi o'sib borayotgan ehtiyojni qondirish uchun yetarli bo'lmay qoldi. Shuning uchun ushbu stansiya 680 million dollar evaziga modernizatsiya qilinib, 560 megavattga teng quvvatlar ishga tushirildi.

Endilikda zamonaviy shamol elektr stansiyasining barpo etilishi aholi, ijtimoiy-iqtisodiy inshootlarni barqaror elektr quvvati bilan ta'minlashi barobarida, xorijiy investorlar uchun korxonalar qurish yoki xizmat ko'rsatishda zarur bo'lgan infratuzilma imkoniyatlarini kengaytiradi. Binoba-

nadi. Ushbu hajmdagi tejalgan gaz bilan 35 mingta xonadonni 1 yil davomida tabiiy gaz bilan ta'minlash mumkin.

Loyiha qiymati 108 million dollarni tashkil etib, davlat-xususiy sheriklik tamoillari asosida yuz foiz investor tomonidan moliyalashtiriladi. Stansiyada 25 ta shamol turbinasi o'rnatiladi. 20 kilometr bo'lgan 220 kilovatt kuchlanishli elektr uzatish zavodiy qurilish, bu quvvatlar mamlakat yagona energetika tizimi bilan to'liq ulanadi. 100 nafar malakali muhandis va texnik xodimlar yuqori daromadli doimiy ish bilan ta'minlanadi.

"Biz uzoq yillik mijozimiz "ACWA Power" kompaniyasini va O'zbekistonning Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 100 MVT quvvatga ega shamol elektr stansiyasi qurilishini qo'llab-quvvatlashdan faxrlanamiz. Orolbo'yi mintaqasi shamol va quyosh resurslaridan foydalanish hisobiga o'z iqtisodiyotini tiklamog'unda," dedi yaqinda Samarqandda o'tkazilgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yillik konferensiyasida mazkur xalqaro moliyaviy muassasaning Barqaror infratuzilma guruhi boshqaruvchi direktori Nandita Parshad.

Shu o'rinda qayd etib o'tish joiz, Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilingan Orolbo'yi mintaqasida boshlangan bu loyiha "yashil energiya" ishlab chiqarish bo'yicha "birinchi qaldir'och" hisoblanadi. Kelgusi besh yilda bu hududda quvvati qariyb 1 ming 800 megavatt bo'lgan yana 3 ta shamol stansiyasi ishga tushirishi ko'zda tutilmoqda.

Umuman olganda, bugungi kunga qadar YTTB O'zbekistonda umumiy quvvati 2 ming 700 megavattlik qayta tiklanadigan energiya quvvatlarini yaratishni moliyalashtirdi. Shuningdek, mamlakat umumiy quvvati 2 ming megavatt bo'lgan shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha tender dasturi ustida ish olib bormoqda.

"ACWA Power" kompaniyasi O'zbekistonda umumiy quvvati 2 ming 600 megavatt bo'lgan issiqlik va shamol elektr stansiyalarini qurishda ishtirok etyapti. Xususan, Buxoro viloyatining Peshku va G'ijduvon tumanlarida har birining quvvati 500 megavatt dan bo'lgan 2 ta shamol elektr stansiyasi barpo etilib, 2024-yilda ishga tushishi mo'ljallangan.

Ushbu stansiyalar uchun shamol generatorlari maxsus mashinalarda Xitoydan olib kelinadi, — deydi Energetika vazirligi yetakchi mutaxassisi Obidjon Dilmurodov. — Ikki stansiya tiklanadigan 158 turbinada mazkur davlatning "Envision" kompaniyasida tayyorlanadi. Yaqinda Peshku tumanida barpo etilayotgan stansiyada shamol turbinasi uchun dastlabki poydevor qurib bitkazildi va agregatlarni montaj qilish ishlari jadal davom ettirilyapti.

Ikki stansiya ishga tushgach, yiliga 3,6 milliard kilovatt-soat elektr quvvatlarini hosil qilinadi. Buning natijasida yiliga 1,1 milliard metr kub tabiiy gaz tejaladi va ayni keza 1 million tonna meqaloridagi zararli moddalar havoga chiqishining oldi olinadi.

Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra, jahon iqtisodiy rivojlanishi bois, 2030-yilga borib elektr energiyasiga bo'lgan talab asr boshidagiga nisbatan 50 foiz oshadi va bu boradagi ehtiyoj 23,27 milliard tonna shartli yoqilg'ini tashkil etadi. O'z navbatida, bu atrof-muhitga yetkaziladigan zarar yanada kuchayib borishidan dalolat beradi. Mutaxassislar mazkur muammoni hal etishning eng samarali yo'li sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish, bu borada yangidan-yangi texnologiyalarni joriy etishni tezlashtirishni ilgari suradi.

Aslida ham keyingi davrda dunyoda "yashil energiya"dan foydalanish miqyosi kengayib boryapti. Misol uchun, 2019-yilda jahon energetikasi umumiy hajmida muqobil quvvatlar salmog'i 26,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 28,1 foizga yetdi. "Ember" tahliiliy markazining qayd etishicha, 2022-yilda Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda gazga qaraganda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ko'proq elektr quvvati hosil qilingan.

O'tgan yili Yevropa Ittifoqi tarixida birinchi marta quyosh va shamoldan gazga nisbatan ko'proq elektr energiyasi ishlab chiqardi va biz joriy yil yana qayta tiklanadigan energiya muhitini ikki barobar oshirishga harakat qilamiz, — deydi Yevromissiya Raisi Ursula fon der Layen. — Biz innovatsiyalarga asoslangan ijtimoiy iqtisodiyotga qadam qo'yimoqdami. Ittifoq bo'ylab katta va kichik shaharlar gullab-yashnab, o'zlarining barqaror imkoniyatini boshlamog'unda. Bu Yevropa "yashil" bitimi va harakatlarning amaliy natijasidir.

Ma'lumotlarga qaraganda, Shotlandiya, Islandiya, Kosta-Rika, Urugvay kabi davlatlarda umumiy energetika miqdorining qariyb barchasi, Shvetsiya, Germaniya, Daniya kabi mamlakatlarda deyarli teng yarmi va undan ko'prog'i muqobil energiya hissasiga to'g'ri keladi. Dunyoda eng ko'p "yashil energiya" ishlab chiqaradigan Xitoy esa 2025-yilga borib uning umumiy miqdorini 25 foizga ko'tarishni rejalashtirmog'unda.

O'zbekistonning bu boradagi rejalar ham tahsinga sazovor. Taraqqiyot strategiyasida barcha sohalarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda ularga "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini faol joriy etish belgilangan. Bunda 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kilovatt-soatga oshirib, jami 100 milliard kilovatt-soatga, mazkur muddatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard metr kub tabiiy gazni tejash maqsad qilingan. Bundan tashqari, 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlarini 25 ming megavattgacha oshirish va uning ulushini hozirgi 14 foizdan 40 foizgacha yetkazish reja qilingan.

Joriy yilning o'zida umumiy quvvati 4 ming 300 megavatt bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari, shu jumladan, 2 ming 100 megavattlik yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirishi mo'ljallangan, — deydi Abdulla Otoboyev. — Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish, iste'molchilarni muqobil energiyaga o'tkazish va tejamkor texnologiyalarni joriy qilish orqali qo'shimcha 5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va 4,8 milliard metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish imkoni yaratiladi. Ushbu maqsadlarga jami 15,4 milliard dollar, shundan 13,4 milliard dollar — davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida investorlar mablag'lari, 1,1 milliard dollar — tijorat banklari kreditlari, 610 million dollar — korxonalarining o'z mablag'lari, 150 million dollari — xorijiy moliyaviy tashkilotlar mablag'lari va 100 million dollari davlat byudjeti mablag'lari hisobidan yo'naltiriladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda muqobil energetika sohasida 7,5 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, "yashil" vodorod ishlab chiqarish bo'yicha yangi loyihalar tayyorlanmoqda.

Muxtasar aytganda, shamol, quyosh, gidro va boshqa muqobil energiyalar tabiatning insonga in'om etgan bitmas-tuganmas va ekologik toza resurslarini hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, taxminan 100-150 metr balandlikdagi shamolning energiya quvvati hozir dunyo bo'yicha insonlar ishlatayotgan elektr energiyasi quvvatidan 30 marotaba katta ekan. Atmosferada 1000-10000 metr balandlikda kuchli, doimiy esadigan shamollar bor. Kelgusida texnikaviy taraqqiyot ulardan ham foydalanish imkoniyatini yaratishga hech bir shubha yo'q. Olimlar ayni kunda avtomobil, poyezd, samolyot va boshqa transport vositalariga o'rnatilgan maxsus qurilmalar yordamida ularning harakatlanishi jarayonida yuzaga keladigan havo qarshiligidan elektr energiyasi hosil qilish ustida izlanishlar olib boryapti. Demak, bu kabi texnologiyalar ham ko'p vaqt o'tmay, kechagina orzu bo'lib tuyulgan shamol elektr stansiyalari kabi insoniyatga beminnat xizmat qiladi.



E'tiborli tomoni, O'zbekistonda SHESni qurish uchun aniqlangan yer maydonlaridagi shamol potentsiali jahonda mavjud shamol elektr stansiyalarining o'rtaacha ko'rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi. Ya'ni quvvatdan foydalanish ko'rsatkichi jahondagi o'rtaacha me'yordan 1,5 barobar yuqori turadi.

Qoraqalpog'istonda 100 megavattli shamol elektr stansiyasini barpo etish uchun Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining texnik ko'magida tender e'lon qilindi va unga 70 ta kompaniya hamda konsorsium qiziqish bildirdi. Ular orasidan keyingi davrda 20 ga yaqin talabgor chiqdi. Bundan bir yil oldin bo'lib o'tgan tanlovda davlat-xususiy sheriklik asosida ishlab chiqariladigan shamol energiyasi uchun eng past tarif — 1 kilovatt-soat elektr uchun 2,56 sent taklif qilgan Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi g'olib deb topildi.

"ACWA Power" kompaniyasi 100 megavatt quvvatli yangi shamol elektr stansiyasini quryapti, — deydi Energetika vazirligi boshqarma boshlig'i Abdulla Otoboyev. — Stansiya 2024-yilda foydalanishga topshiriladi. U ishga tushgach, yiliga 350 million kilovatt-soat elektr quvvati ishlab chiqarib, 120 mingdan ortiq xonadonni muqobil energiya bilan ta'minlaydi. Yana bir muhim jihati, stansiya ishga tushirish natijasida yiliga 106 million metr kub tabiiy gaz tejalishiga erishiladi hamda atmosferaga 160 ming tonna zararli chiqindi chiqishining oldi oli-



## YURTNING OBOD GO‘SHALARI

## Qoraqalpoq turizmi

rang-barangligi va jozibadorligi bilan sayyohlarni jalb etadi

**Qo‘ng‘irovboy SHARIPOV,**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori,  
Alisher ESHTAYEV,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamlakatimizda turizm iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanoqda. Qolaversa, yangi O‘zbekistonni barpo etishda sayyohlikni rivojlantirish uchun qator ustuvor vazifalar belgilangan. Joriy yil 29-mart kuni turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasini yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu yil yurtimizga 7 million xorijlik va 15 million mahalliy sayyohni jalb qilish, eksportni 2,5 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha topshiriq berilgan edi.

Ushbu topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari va talabalari tomonidan Qoraqalpoq istonning Taxtakopir, Xo‘jayli va Elikqal‘a tumanlarida izchil sa‘y-harakatlar olib borilmoqda. Avvalo, OTMga birlashtirilgan tumanlardagi sayyohlik obyektlari, ya‘ni Elikqal‘a tumanidagi 21 ta, Xo‘jayli tumanidagi 13 ta va Taxtakopir tumanidagi 14 ta sayyohlik manzillarning kontenti yaratildi. Sohanni rivojlantirishga ta‘sir qilayotgan omillar tahlil qilindi. O‘rganilayotgan sayyohlik obyektlari bo‘yicha tsuetravel.com platformasida ishga tushirilib, Taxtakopir, Xo‘jayli va Elikqal‘a tumanlarining turizm kontentlari joylashtirilmoqda.



mazkur hududlarda turizm sohasini keng rivojlantirish uchun qator ishlarni bajarish rejalashtirilgan. Jumladan, mahalliy va xorijlik sayyohlarni keng jalb qilish, tumanlarning o‘ziga xos xususiyati va tabiiy salohiyatidan kelib chiqib, xalqaro raqslar festivali, xalqaro kreativ blogerlar festivali, xalqaro talabalar forumi, eng kreativ fotosurat tanlovi kabi tadbirlarni o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Turli sohalarda faoliyat ko‘rsatuvchi korxonada va tashkilotlarning yagona maqsad sari hamkorlikda hamda o‘zaro hamijihat bo‘lib klasterlarga birlashishi hududning ichki resurslaridan yanada samarali foydalanish imkonini beradi. Ko‘pgina davlatlarning turizm sohasidagi tajribasi shundan dalolat beradiki, klasterlar iqtisodiyotning yuqori samaradorlikka erishishiga xizmat qiladi. Klasterlarni shakllantirish mamlakatda mavjud turizm resurslari

yo‘nalishlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Tumanlarning geografik joylashuvi, ixtisoslashuvi, tarixi, imkoniyatlari va boshqa muhim elementlari o‘rganilib, turizmning turlariga ixtisoslashuvi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, Elikqal‘a tumanida tarix va arxeologiyani sevuvchilar uchun Ayoqzal‘a qo‘rg‘oni, Bo‘ronqal‘a, Buriqal‘a, Dumanqal‘a, Jeldiqal‘a, Kichik Qirg‘izqal‘a, Qavatqal‘a, Tuproqqal‘a, Qo‘rg‘oshingal‘a, Burgutqal‘a, Qo‘yqirliqal‘a va boshqa joylarga sayohat uyushtirish mumkin. Tuyaada hayajonli sayohat qilish va qadimgi Ayoqzal‘a xarobalarini ziyorat qilish, Ayoqzal‘a cho‘milish, motorli qayiqda sayr qilish, mahalliy baxshi va jirovlarning ekotik folklor kuy-qo‘shiqlarini tinglash imkoniyati mavjud.

Elikqal‘a tumanida ko‘plab diqqatga sazovor tabiiy joylar, o‘simliklar dunyosi, flora va fauna mavjudligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilishi ekologik va agroturizmni keng yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratadi. Ushbu tumanda turizmga noqulay mavsumlarda turli tadbirlar, tanlov va ko‘rgazmalar, o‘ziga xos festivallar, muayyan sohalar bo‘yicha olimlar va tadqiqotchilar uchun ilmiy anjumanlar, ommaviy tadbirlar, ishbilamonlik turizmini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xo‘jayli shahri g‘arbiy chekkasida, Ko‘hna Urganch shahriga olib boruvchi yo‘lining ikki tomoni bo‘ylab tepalikda bepoyon qadimgi Mizdashkan shahri nishonalari joylashgan. G‘arbiy tepalikda joylashgan qadimgi Mizdashkan shahri miloddan avvalgi IV-III asrlarda paydo bo‘lgan. Shuningdek, hududda Mazlumxonlu maqbarasi, Xalifa Yerejep maqbarasi, Shamu nabi maqbarasi, Aq Xanaqi majmui va Jumart qassob kabi obyektlar mavjudligi ziyorat va arxeologik turizmni, qoraqalpoq xalqining o‘ziga xos taomlari gastronomik turizmni, mahalliy xalqning yashash madaniyati, milliy urf-odat va udumlari etnografik turizmni rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Taxtakopir tumanidagi Aydosqal‘a, Barakam, Jamanqal‘a, Qo‘rg‘onchaqal‘a, Qo‘shminar, Qiliqchil‘a kabi obyektlar arxeologik turizmni, cho‘l hududlarida safari, rali va ekstremal turizmni, Qorateran ko‘lida 10 ga yaqin baliq turlari, noyob o‘simliklar va qushlar mavjudligi ovchilik (baliqchilik), ekologik turizmni, Qorateran ko‘lidan 30 metr uzoqlikda bir nechta buloq joylashgan bo‘lib, ko‘l suvi 8-10°Cni tashkil etsa, buloqlar suvi 23-25°Cni tashkil etishi esa sog‘lomlashtirish turizmni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Turizm sohasi boshqa sohalardan farqli ravishda ko‘proq targ‘ibotni, reklamani talab qiladi. Shu maqsadda Taxtakopir, Xo‘jayli va Elikqal‘a tumanlariga Avstriya, Indoneziya, Rossiya va Britaniya kabi davlatlardagi hamkorlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq vakillari va blogerlarni jalb qilib, ushbu jarayonlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizning boshqa hududi kabi Qoraqalpoq istonning ham turizm salohiyatidan to‘liq foydalanish maqsadida qator ishlarni bajarish rejalashtirilgan bo‘lib, albatta, bunda soha bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan olim va tadqiqotchilarning amaliyotchilar bilan hamkorligi yuqori natija beradi.



Mahalliy turizm tashkilotlari bilan hamkorlikda ushbu tumanlarga sayyohlarni keng jalb qilish va ularni hududda 4-5 kun mobaynida olib qoladigan jozibador va qiziqarli 12 ta turizm paketi ishlab chiqildi.

Shu yilning 1-2-iyun kunlari Elikqal‘a tumanida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan “Yangi O‘zbekistonni birgalikda quramiz!” shiori ostida “Sahro sadosi” yoshlar festivali o‘tkazildi. Festival o‘tkaziladigan joylar sifatida tumandagi Aqchako‘l, Ayoqzal‘a va Yoshlar oromgohi kabi obyektlar tanlab olindi. Tadbir davomida turli sport musobaqalari, “Zakovat” intellektual o‘yini, milliy o‘yinlar, qoraqalpoq milliy taomlari, milliy kuy-qo‘shiqlar, rasm chizish bellashuvlari o‘tkazildi. Ularga mahalliy aholi bilan birga xorijlik sayyohlar ham jalb qilindi.

Taxtakopir, Xo‘jayli va Elikqal‘a tumanlarida faoliyat yurituvchi gid-tarjimon va ekskursiya yetakchilari uchun sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish, jumladan, o‘zini tutishi, nuqt va kiyinish madaniyati, turizm obyektlari to‘g‘risidagi axborotlarni bilish va ularni sayyohlarga yetkazish, ziyorat odobi, ziyorat obyektlarida ekskursiyaga olib borishning uslubiy asoslari, diniy maskanlarda ekskursiya o‘tkazish texnikasi va tarbiyaviy ahamiyati borasida batafsil ma‘lumot beradigan uslubiy o‘llanma ishlab chiqildi.

Universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan 5 ta ixtisoslik egalari uchun qisqa muddatli o‘quv kurslari o‘quv rejalari va dasturlari ishlab chiqildi. Shu asosda Taxtakopir, Xo‘jayli va Elikqal‘a tumanlaridagi turizm va servis xodimlari malakasini oshirish, mahalliy aholini turizm sohasiga jalb qilish orqali bandlegini ta‘minlash maqsadida seminar-treninglar o‘tkazilmoqda.

Tadqiqotlar natijasida turizm sohasi rivojiga ta‘sir qiluvchi qator kamchiliklar aniqlandi. Xususan, ushbu tumanlardagi 17 ta sayyohlik obyekti mavjud sayyohlik yo‘nalishlariga kiritilmagan. Elikqal‘a tumanida ekologik, agro, ov va sohil turizmi, arxeologik turizm, Taxtakopir tumanida sog‘lomlashtirish turizmi va Xo‘jayli tumanida ziyorat turizmi imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Hududlarning sayyohlik salohiyati jahon axborot tarmoqlarida deyarli targ‘ib qilinmagan, gid-ekskursovodlar yetishmasligi sababli sayohatchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyati past darajada. Mavjud sayyohlik obyektlari atrofida turizm infratuzilmasi qoniqli darajada emas.

Universitet professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilari shu tumanlarda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida marketing tadqiqotlari olib bormoqda. Shu bilan birga,



## EKOLOGIYA VA BIZ

O‘ktam MIRZAYOROV,  
jurnalist

Yozning odatdagidan issiq va quruq kelishi, qishning beayov izg‘irirlari, yildan-yilga muammoga aylanayotgan suv tanqisligi kabi atrof-muhitda kechayotgan iqlim o‘zgarishlari go‘yo bizga tegishli emasday hayron va lol kuzatishdan, ajablanishdan nariga o‘tmaymiz. Ona tabiatda nega shunday holatlar yuz berayotgani, bunda qaysidir ma‘noda bizning ham aybimiz borligini o‘ylab ko‘rmaymiz.



## SOG‘LOM HAYOT GAROVI

Bundan bir necha yil avval yurtimizga xitoylik bir guruh hamkasblar tashrif buyurdi. Ular bilan dildan suhbat qurdik. Birinchi so‘raganimiz “Toshkent sizda qanday taassurot uyg‘otdi”, degan savol bo‘ldi.

— Samolyot aeroportga qo‘nib, eshigi ochilishi bilan birinchi qilgan ishim shaharning musaffo havosidan to‘yib nafas olish bo‘ldi, — dedi suhbatdoshim. — Tanim yayradi, maza qildim. Toshkent kutganimdan ham afzal, yam-yashil shahar ekan...

Ha, yurtimning ob-havosi yaqin-yaqingacha ham shunday, atrof-muhitni obodonlashtirish ishi shaharsozlikning asosiy faoliyati edi. Xorijlikni lol qoldirgan hozirgi “musaffolik” bilan bundan keyin faxrlana olmasak kerak. Dunyoda kechayotgan ekohalokattlar yurtimizni ham chetlab o‘tayo‘tgan yo‘q. Iqlim o‘zgarishlari oqibatida goh sharqdan, goh g‘arbdan kirib kelayotgan issiq havo oqimi, changto‘zonlar qatlaminin “semirib” borayot-

ligimiz ana shu bir yutum kislorodga bog‘liq, uni esa bizga beozor daraxtlar in om etadi. Mana, nega biz tabiatni onamizga mengazymiz. “Ona tabiat”, deb alqaymiz.

Ba‘zan matbuotda, ijtimoiy tarmoqlarda goh shundaygina yonimizda bizga hayot ulashayotgan daraxtlar so‘rab-so‘ramay kesib tashlanayotganiga, yam-yashil xi-yobonlar qurilish maydoniga aylantirish maqsadida payhon etilayotganiga guvoh, yo‘q, tomoshabin bo‘lib turibmiz. To‘g‘ri, ayrim ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq vakillari joylarda sodir etilayotgan ekoinoyatlar haqida bong urmoqda. Ammo yuz yillar davomida barq urib yashnab kelayotgan, yozda soyasi bilan, o‘zidan chiqarayotgan kislorodi bilan jonimizga oro kirayotgan daraxtlar ayovsiz kesilgandan so‘ng ko‘rilgan choradan qanchalik foyda bor? Demak, bugungi kunda omma orasida ekomadaniyatni shakllantirmay turib, maqsadga



ganiga o‘zimiz ham yaxshigina “hissa” ko‘shaymiz. Sanoat korxonalarini, avto-transport vositalaridan chiqayotgan texnik gazning ortib borayotgani nafaqat atrof-muhitga, balki inson salomatligiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazyapti.

Soha mutaxassislarining hisobotlari bilan tanishsangiz, yuraginiz orqaga tortib ketadi. Dunyo bo‘ylab har yili 7 milliardon ziyod kishi havoning ifloslanishi oqibatida vafot etar ekan. Ularning ko‘pchiligi saraton, nafas olish yo‘llari yoki yurak kasalliklariga chalingan. Bolalarda ko‘p hollarda nafas qisish (astma), surunkali o‘pka kasalliklari, o‘shining sekinlashishi, semirish va aqlik zaiflik paydo bo‘lishi ehtimoli ko‘proq. Bu ma‘lumotlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti manbalaridan olingan.

Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, havo sifatiga transport vositalaridan tashqari ko‘plab boshqa omillar ham ta‘sir qiladi. Masalan, turar joy va boshqa binolarni istitshida yoki dalalarga ekin ekishda qo‘llaniladigan turli kimyoviy moddalar ham havoni ma‘lum darajada ifloslantiradi. “Bu shuni ko‘rsatadiki, atrof-muhit zararlanishining oldini olish uchun transport sohasidan tashqari boshqa tarmoqlararo kompleks chora-tadbirlarni ko‘rish juda muhimdir”, deyiladi Yevropaning BMT iqtisodiy komissiyasi bayonotida.

Inson ovqatsiz, suvsiz bir necha kun yashashi mumkindir, ammo havosiz 5 daqiqaga ham yashay olmaydi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, bir kishi kuniga 1 kilogramm ovqat, 2 litr suv iste‘mol qiladi, 25 kilogramm havoni esa nafas olish uchun sarflaydi. Biz har kuni iste‘mol qilayotgan havoning atigi ikki foizigina kislorod ekanini hammasi bilmasa kerak!

Kislorod yetishmasligi tirik organizmning hamma a‘zolari me‘yorda ishlashiga shikast yetkazadi. Siz bilan bizning hayot-

erishish mushkulday ko‘rinadi. To‘g‘ri, bu haqda ko‘p yozilmoqda, fikrlar bildirilmoqda. Ammo turmush tarzimizga tabiatga nisbatan mehr uyg‘onmas ekan, vaziyatimiz o‘nglanishi qiyin. O‘tmishda otobobalarimiz o‘lada o‘g‘il farzand tug‘ilsa, katta bo‘lgach, uy-joyini qurib olish uchun turli xil daraxtlar ekan, bu daraxtlar o‘n sakkiz, yigirma yil davomida o‘zidan qancha kislorod chiqaradi, qancha odam uning ne‘matidan bahramand bo‘ladi? Bog‘ barpo etish, atrof-muhitni toza-ozoda saqlash xalqimizning asriy qadriyatidir.

“Havoning ifloslanishi iqtisodiyotdagi vaziyat va odamlarning yashash sifatiga tahdid qiluvchi kuch bilan o‘shinda davom etmoqda. Bu sog‘liqni saqlash uchun favqulodda holatdir”, deyiladi JSST hisobotida.

Atrof-muhitni toza tutish, ekologik muammolarning oldini olish mamlakatimizda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Tegishli tashkilotlar, jamoalar, partiya va birlashmalar bu borada izchil sa‘y-harakatlar olib borayotganiga qaramay, vaziyat jiddiyligicha turibdi.

Ba‘zan davlat rahbarlari mamlakatimizga tashrif buyurganida esdalik uchun daraxt ko‘chatlari ekadi. Bu jamoatchilikka ibrat bo‘ladigan juda yaxshi an‘ana. Kuz yoki bahorda o‘tkaziladigan katta-kichik ko‘ngilochar tadbirlar, ekosayohatlar paytida minglab daraxtlar ekilsa, do‘stlik, yoshlik kabi nomlarda bog‘-rog‘lar hashar yo‘li bilan barpo etilsa, nur ustiga nur bo‘lardi. Albatta, bunday tadbirlarda ona tabiatni alqaydigan she‘r va qo‘shiqlar yangrasa, zamonaviy videoorliklar namoyish etilsa, o‘shib kelayotgan yosh avlod ongida tabiatni asrash hissi yukalgan, atrof-muhitni asrash umumimizga aylangan bo‘lardi. Axir ekomusaffolik salomatligimiz garovi-ku!



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official

**MILLAT FIDOYLARI**

# ABDULLA ORIPOV

## ijodiy fenomenini yoxud mangulikning billur toji



**Abdulla Oripov she'riyati haqida fikr yuritish bizni bashar mavjudligining sirli-sinoatli, jozib va tilsimli dunyosiga boshlab boradi.**

### O'roz HAYDAR, shoir

Boshlanishi 1-betda

Lekin uning bahori, o, sen, cho'llar bahori, Sog'intirgan onamning diydori senday shirin. Ertan kun qovjirashdan bo'lsa ham dilda zori, Lola kabi xandon-u tubda yashirin dog'i. Oyoqlangan qo'ziday dovdidar yelda mayssa, Ko'm-ko'k, moviy osmondan kezib yurar oq bulut. To'rt taraf qisib kelib, nogahon jala quysa, Olamga anqib ketar ming xil ko'kat, ming xil o't...



umid otashida cho'g'lantirib, mehr-muhabbat ulashadi.

Shoirning "O'zbekistonda kuz" she'riga munosabatda shunday yorqin mulohazalarga nihomimiz tushadi.

Shabnam shovullaydi bog'lar qo'ynida, Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar. Quyoshning erinchoq yog'dularida, Nafis yaltiraydi bargi xazonlar...

Shabnamning shovullashi inson aql-u tasavvuriga kelmaydi. Ammo shoir nozik tuyg'ular orqali chiroyli ifodalashni, bog' uzra esgan shamol daraxtlarni yelpib barglarga ingan shabnamlarni to'kib yuborish jarayonida "shabnam shovullashi" ga to'g'ri tashxis qo'yadi. Yoxud ikkinchi qatordagi tongning "bo'zarishi", uchinchi misradagi "erinchoq yog'dular", to'rtinchidagi "xazonlarning nafis yaltirashi" orqali kuz faslini hayratomuz poetik topilmalar bilan tasvirlagan, bu manzaralar keyingi bezovta his-tuyg'ularga o'tishi-yu kontrastlik yuzaga kelishi yechimini topgan. Qarangki, tabiat manzarasi ijtimoiy voqeilik bilan uyg'unlashib, sho'r davri qiyofasini oydinlashtiradi. Million egatlariga egilgan xalqning og'ir mehnat ostida kuz go'zalligida bebahra yashayotganidan qayg'uradi. O'zbekning har bir fasli o'z go'zalligi va nafosati bilan dunyodagi mamlakatlardan farqlanishini, o'zining ayrica manzarasiga ega ekanini shoir rassomona sinchilik bilan so'z bo'yog'ida yorqin va jozibali chizgan.

"Bahor kunlarida kuzning havosi" deb boshlanuvchi she'rda ham xalqning erksizligidan o'kinch o'tida yongan, atrofdagi mavjud narsadan malol tuygan, hattoki nayning navosi g'amg'inligidan qalbi bezovtalangan shoir orzu-armonlarini o'qiydi. "Barglar orasida behol o'ynayotgan uyqudagi qizning bedor tushlari" dan falajlangan "Erk qizi" ning zabunligidan mag'lub bahodirning nazasi misol ma'yus egiylotgan terak uchlarini yurakni sergaklantiradi. Nega bahor kunlarida kuzning havosini tuyayotgan shoir holatini anglatmaydi. Demochimanki, 60-yillar-danoq shoir tabiat manzaralari orqali Vatani, xalqi dardini, sho'r zulmini tusha teggaman poetik topilmalar orqali davrning ayanchli qisimatini san'atkorona ta'rifiyadi.

Ha, turg'unlik davrining eng mudroq faslida o'zbek adabiyotida "xalqchilikning quvvusi kuychisi emas, balki chinakam san'atkor" (V. Belinskiy) sifatida Abdulla Orif maydonga keldi. Uning otashlarga yo'g'rilgan poeziyasi ma'naviy bo'shliq qalb vafosi bilan to'ldirdi. Asriy qatqaloqlik erkin fikr tajassumida hayotbaxshlikka yuz burdi. "Tiroq yulduz kabi muzlagan shuur" da zamonamiz quramligi, ya'ni zamonasozlik muddatini o'tagan maxfiy qo'lyozmaday kuydirildi. Sof tuyg'ular por'tanasi aqliy jonunlik va hayoti ehtiroslar pufagini sidirib tashladi. Shoirning "Kuz xayollari" she'rda yer va samo ohanglari uyg'unligi bilan, inson qalbi ozodligi, tabiat go'zalligi hayrat silsilasidan tug'ilganining guvohi bo'lami. Shu she'rni to'liq tahlil etsak, shoir tafakkuri va zakovat qudratining nechog'liq yuksaligini anglab yetamiz.

Qorayganda uzoq tog'larning qori, Bog'larga cho'kkanda oqshomgi tuman, Sovuq kuz yelidan junjikib, nari — Ochiq ayvon ostin etganda maskan. Do'stingam, xayolan quchaman seni, Xazon davrasida kutaman seni.

"Qorayganda uzoq tog'larning qori" misrasi o'ziyoq qalb chiltorini chertib, allanechuk sokin tuyg'ular mavjida ma'yuslik epkini muzqotgan xayollarni chuva boshlaydiki, tabiat tilisimoti sohilrik maqomiga do'nadi. Mezonda suv qorayadi deydi-ku xalqimiz, ko'zga uncha chalinmas mezon iplari chuvalib sarg'aygan o't-o'lan-u dov-daraxtlar shoxlariga "arg'amchi otadi". Bog'larga oqshomgi tumanning cho'kishi hamon tog'larning oq qorida qorayib ko'rinishini anglash ong osti sezimi inkishofidir.

Odatda kun botishda shafaq yo'lqini kuyishadiki, osmon soyasi borliqqa qora to'rini yoyadi. Bu yerda shoir kuz fasli kartinasini so'z bo'yog'ida chizish emas, balki inson umrining kuzi haqida ham so'z o'chadi. Avvalo, sovuq kuz yelidan junjikkan tuman ayvon ostini maskan aylarkan, bu holat shoir yuragida ham kechishi inson va tabiatning bus-butunlikka uyg'unligini aks ettiradi. Do'stni xazon davrasida kutish she'r muhibini hayratga soladi. Nega, nega degan savol aks sadodday to'liqin soladi. Umr kuzida inson xayolida eng yaqin qadrdonlar gavaladanadiki, parishon o'ylar yig' masida bolalig-u yoshlik faslining munavvir damlari buloqdek ko'z ochsa, ajabmas. She'rning ikkinchi oltinligida ham tabiat manzarasi betimsol chizgilarda mavjlanadi. Shoirning muddaosini uchinish oltinligida yaqqolroq sezishga jazm etasiz va muyassar bo'lasiz.

Nimani xohlayman? Istagim nima? Changalzor shovqinini tinglab turaman. Yaproqlar bandida kezgan jimgina Ma'yus va bezovta kuzi ko'raman. Uning qo'shig'ida, uning ohida, Sezaman odamzod qalbin gohida.

Nogahoniy olovli tug'yon muzlagan tomirlariga daxrofiy shovqinga emas, ilohiy zavqqa rag'bat, bedor tuyg'uga mayl uyg'otadi. Har qanday shovqinga yalang'o'chlik bor. Shovqin — qofiyabozning shaqidog'i, u tuyg'ular jununini to'nglatadi, ehtirosni erkini vaznsizlikka muftalo etadi. Erksizlik va zalolat shovqini insoniy umid qotildir. Yaproqlar bandida jimgina kezgan bezovtalik (ma'yuslik ham!) ohida odamzod qalbin sezish bu — yashashga berilgan huquqdur. Aslida, hayot — cheklanmagan imtiyoz.

— buyuk murabbiy. Inson hayot ta'limini o'rganish, o'zini anglash barobarida o'z "mamlakati"ga egalik hissinu uyg'otadi va o'rnatadi.

Turg'unlik davrining yalang'o'chligi, odamlar shuurning narsizligi shoir halovatini jubnushga keltiradi. Shoirni kuzning xayolidan ko'klamning nash'ayu nag'masini topish, uning hukmdori bo'lib qolishga da'vat etgan urg'u ham shundandir. She'rda ikki qutb mavjudligi ushbu xulosani tug'diradi. Bu — mening fikrim. Hayqirib, hovliqib oqayotgan soydan chavandoz umrining qaytmas sehrini anglagan shoir munojotida diltangli-u bedorlikka safarbar etgan tuyg'u burg'unini behuda chalmayapti. Inson umri takrorlanmasligi shoirni qattiq o'yg'a solyapti. Inson ana shu takrorlanmas umri davomida o'z bahorini topa oladimi yo'q? Umr takrorlanmaydi, bahor uyg'onguvchi. Umr va bahor mushtarakligi mavjud emas ekan, inson hayoti xazonrezgillikka mahkumdur. "Shoir faylasuf emas, musavviridir. Uning manzara va tasvirlaridagi hamishalik mavzu "shuhratga to'la ijod" — behudud va rang-barang hodisalarga to'la olamdur. Poeziya ko'ngliga obrazlar bilan so'zlaydi va undagi obrazlar ibtidosi tabiatning barcha juz'iy hodisalari va shakllari quvillishida tovlanib turgan go'zallik ifodasi mohiyatidir". Bu — Belinskiy talqini. Buyuk munaziq izlagan obraz yuqoridagi misralarda quyma tarzda o'z ifodasini topgan.

Meni savollarga ko'mar da'atan, Xazonning taqdiri, so nggi shovqini. Ko'zimga ko'rinar umrim qaytadan, Garchi surmakdaman bahor shavqini. Garchand yigit yoshim yashnab tursa ham, Keksalik qismatin o'ylayman shu dam.

Naqadar boldek to'liq misralar! Xazonning taqdiri shoir xayolida shovqin solyapti. Shoir shovqinga emas, bahor shavqida umrining qaytadan haddi-hisobini o'lchayapti. Nega yana yigit yoshi yashnab tursa ham, keksalik qismatini o'ylayapti? Keksalikda qalb navqironligini saqlab qolish har kimning ham chekiga tushavermaydi. Hayot chaxrida charxlanaverib, jismoniy va ruhiy quvvatiga darz ketgan kishi dunyo malomati yukiidan qalb majruhligiga yo'liqlishi ba'zan tasavvurimizga kelavermaydi. Ana shunday damda...

insoniyat kechmishida shunday bir davr bo'ldiki, shoir she'riyatida kuy sehiri, musavvir mo'jizakorligi, donishmand zakovati barobar o'zi yashayotgan davrning farzandi ekani haqidagi eng to'g'ri haqiqat ham o'z aksini topmogi lozim edi. Abdulla Oripov she'riyatidagi bu beshafqat haqiqat barchamiz dunyoda yagona Vatani — O'zbekiston farzandlari ekanligimiz "butun-butun avlodlarni "tarbiyaladi". Shu o'rinda yaqqol aytilish shartki, ma'naviy-ruhiy zamonada ham Abdulla Oripov she'riyati inson manzaralarining mohir naqqoshi sifatida adabiyotga tamol toshini qo'ydi. Vatani va insonga muhabbat tuyg'usi o'ziga ma'nosini ko'rinishini oldi. Har bir yurting tabiati tilisimotidir. Turfa mo'jizalar kuyiga hamohang. Shoir insoniyat dunyoga shamoldek kelib, shundoq ketishini anglagan holda o'zining boqiy kamolini she'riyatida o'ldirgan ko'ra bildi.

Qancha shamollarga yuzimni burdim, Ulardan esdilar turfa xil nafas. Ularda goh qayg'u, goh shodlik ko'rdim, To'xtamay o'tdilar bari ham birpas... Faqat qayg'ulardan sen o'zing xoli, O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Shoir she'riyatida inson zitirobi rangin tashbehlarida toblandi, cheksiz farog'atda baxshida etgunchi hikmatlarda yuksal joziba kasb etdi. "Yellar ham uyg'ondi ishqalab kafetin", "Uvada kamzolda billur tugmaday, Bulutlar ortidan boqadi yulduz", "Minorlar emas bu — falakka qasam", "Cho'ntakdan to'kilgan tangalar misol, Shu'lalar o'ynaydi supa uchida", "Borliq kuz misoli o'yachan musavvir — Naqsh etmish derazang uzra savollar" kabi shaf-fof misralarda qalb go'zalligi, hayotga tashnalk, insoniyatga rahnamolik, Koinot tarbitibini buzishga urinuvchi yovuz kuchlarga qarshi kurash, nafosat va fasholat chamanlariga mushtaraklik tuyg'usini ulug'lashni har bir she'rda uchratasiz va hayrat gir-dobiga cho'masiz.

Abdulla Oripov she'riyatidagi muhabbat mavzusi shunchalar keng qamrovli, unda ilohiy muhabbat bilan insoniy muhabbat o'rtasidagi qizil chiziqni topilmay. Aslida, inson qalbidagi muhabbatda ham ana shu ikki buyuk tuyg'u o'zaro bir-birini to'ldirib yashaydi. Bu esa shoir she'riyatining adabiyotdagi ta'min etadigan dunyoviy-diniy mohiyat unsurlaridan biridir. Tillarda doston bo'lgan "Birinchu muhabbatim" she'ri kuyga solinib, go'shiq tarzida ijro etilishida emas, shundoq o'qilganda ham yuragimizni tebratadi. Ruhimizda sokin uyg'ongan ma'yuslik xotira go'zalligi, sog'inchi hissi, hayrat mo'jizasiga oshno etishida umrimiz obodligi insoniy muhabbat bilan bardavom ekanidan farog'at tuyamiz.

Abdulla Oripov she'riyati haqida fikr yuritish bizni bashar mavjudligining sirli-sinoatli, jozib va tilsimli dunyosiga boshlab boradi. Bu izlanishda inson hayotiga tegishli qalb va tafakkur, xayol va tasavvur, idrok va zakovat dunyosining eng tajanatlari bilan ro'baro' kelasiz. Zoro, bu she'rda — hayot mayog'i bo'lib, abadiyatdan sado ekanini yanada chuqurroq his etasiz va quvonasiz!

Shoir she'riyati Sharq donishmandligi bulog'idan suv ichganki, ayniqsa, umrining so'nggi yillarida yozgan falsafiy she'rlari so'z san'atining inju durlari bilan saqqallanganidan bevosita burgunday havolanasiz, yuksaklikda boqib, cheksizlikni qalbingizga yo' etasiz. Vatanga muhabbat tuyg'usi shunchalar ulug'vor ekanidan mo'jizaga to'yinasiz.

Ba'zida achchiq kesatliq, shirin istehzo, pichingli kinoya bilan zarhallangan satir yarukni tebratadi, ko'zda qotgan tabassum shu'lalanadi. "Vatan" she'rini o'qisangiz ruhlanasiz, vatansizlikning mud-hish ko'rinishini anglaysiz va o'z vataningizda erkin yashayotganingizdan shukronalar aytasiz.

Vatan nimadir deb yurgandan ko'ra, Esingni bir joyga yig'ib ol, jo'ra. Dunyoda ibratli darsxonalar ko'p, Vatanni sen vatangadodan so'ra.

Uning har bir she'ri, aql va idrokning cheksiz im-koniyatlaridan foydalanib chuqur tahlil qilinganda, ana shu sir va sinoat sizning ko'z o'ngingizda o'zini namoyon etadi.

Zero, Abdulla Oripovni shunchaki tasavvur kuchi bilan kasf etamiz, desangiz, adashmasiz-u, lekin o'rta tahlil va talqinlarga ro'baro' kelaverasiz. Bugungacha bu ulug' shoir ijodi haqidagi tadqiqotlar-ning deyarli juda katta qismi ana shu tasavvur meva-laridir.

Eng muhimi, bu yerda qiziq bir paradoks bor. Aslida, bu talablariga Abdulla Oripov ijodini jon qadar yaxshi ko'radigan oddiy kitobxonlar va shoirning muxlisari uchun zarra qizigi yo'q. Ular shuziz ham shoir ijodini yuksak bir mehar bilan qadrlaydi. Lekin buyuk bir xalqning buyuk bir shoiri ijodining muaz-zamligini anglamaslik shu xalqning o'zligini angla-maslik bilan tengdir.

Abdulla Oripov she'riyati — mangulikning billur toji. Bu toj Allohdan shoirga tuhfa etilgani bilan ham faqquloloda hodisa va bekaram etilgan desak, yang-lishmaymiz.



Unga bari birday hayot va o'lim, Go'yoki keksa chol so'ngini o'ylar. Va sekin silkitib qahrabo qo'lin, Ko'rganin-bilganin birma-bir so'yalar. Bir hikmat o'qiyman xazonlardan men: "Yashagin-u, biroq yaproq bo'lma sen".

Shu dam tuyg'ularga to'ladi ko'nglim, Titrab tarashlayman qalamim uchin. Tong ham yorishadi, ey mening umrim, Bunchalar tezlikda chopasan nechun? Xazonlar shoshadi, shoshaman men ham, Do'stim, huzurimga shoshib kel sen ham!

"Qahrabo qo'l" — topilma. Cholning qo'li qurush-qoq, qahrabo tus. Cholni kuzga muqoyasalash ayni keshishmagan chiziqdagi aniq taassurot qoldiradi. Xazon — yo'qlikdan nishon, uning shiirida so'g'inlik giriyasi o'rlaydi, umum savqida esa hayot mohiyati-ning xossasini ko'ramiz. Shoir qalbi ulug' bir hikmatni angladi: "Yashagin-u, biroq yaproq bo'lma sen". Bu qalb iqrori.

Mangu yashillikning maskani qayda, Qaydadir xazonni bilmagan bahor? Nechun u hovliqib oqquvchi soyda, Chavandoz umrining qaytmas sehiri bor? Nechun uyg'onadi qaytadan bahor, Nechun inson umri bo'lmagay taktor?..

Shoir yashillikning mangu maskanini inson qalbi-dan axtaryapti. Qalb illatlardan tozalannas ekan, undan xazonrezgillikka ro'yuxsh bermas ko'klam manzil topilmaydi. Mangu adashadi. Qalb bahorigina inson ruhiyatini bedorlikka chorlaydi. Insonning o'zi mamlakat. Uning hukmdori ham, quli ham o'zi. Hayot

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646. 41011 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadordlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Feruza Jo'rayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

O'za yakuni — 22:20 Topshirildi — 23:20

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetaları tahririyati DUK

BUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini

Qabulxona: (71) 233-56-33

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Devorxon va e'l-onlar: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05